

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

## SEMANTIC ANALYSIS OF POLYSEMOUS VERBS IN THE KOREAN LANGUAGE (USING THE VERB 가다 “TO GO” AS AN EXAMPLE)

**Shirin Izzatovna Kamalova**Lecturer, Department of Korean Philology  
Samarkand State Institute of Foreign Languages[Izzatzoda15@naver.com](mailto:Izzatzoda15@naver.com)

Samarkand, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** polysemy, polysemy, sema, types of meaning, figurative meaning, metaphor, metonymy, synecdoche.

**Received:** 14.12.25**Accepted:** 15.12.25**Published:** 16.12.25

**Abstract:** This article is an analysis of the phenomenon of polysemy in the Korean language, the phenomena of semantic and multi-meaning of words. The importance of the translation of polysemantic words in language learning is also studied. The types of polysemy and meaning transfer in verbs in the Korean language are studied and analyzed through examples.

## KOREYS TILIDA KO‘P MA‘NOLI FE‘LLARNING SEMANTIK TAHLILI (가다- BORMOQ FE‘LI MISOLIDA)

**Shirin Izzatovna Kamalova**

SamDChTI Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

[Izzatzoda15@naver.com](mailto:Izzatzoda15@naver.com)

Samarqand, O‘zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** polisemiya, ko‘p ma‘nolilik, sema, ma‘no turlari, ko‘chma ma‘no, metafora, metonimiya, sinekdoxa.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola koreys tilida polisemiya hodisasi, so‘zlarning semantik va ko‘p ma‘nolilik hodisalari tahlilidan tashkil topgan. Polisemantik so‘zlar tarjimasini til o‘rganishdagi ahamiyati ham tadqiq qilingan. Koreys tilida fe‘llardagi ko‘p ma‘nolilik va ma‘no ko‘chish turlari o‘rganilib misollar orqali tahlil qilingan.

## СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МНОГОЗНАЧНЫХ ГЛАГОЛОВ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ГЛАГОЛА 가다 «ИДТИ»)

**Ширина Иzzатова Камалова**

Преподаватель кафедры корейской филологии

Самаркандский государственный институт иностранных языков

[Izzatzoda15@naver.com](mailto:Izzatzoda15@naver.com)

Самарканд, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

|                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ключевые слова:</b> полисемия, многозначность, сема, типы значения, переносное значение, метафора, метонимия, синекдоха. | <b>Аннотация:</b> В статье анализируется явление полисемии в корейском языке, явления семантики и многозначности слов. Также рассматривается значение перевода многозначных слов в изучении языка. На примерах изучаются и анализируются виды полисемии и переноса смысла глаголов в корейском языке. |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** Soʻzlar oʻrtasidagi ichki maʼno farqlanishi bilan bogʻliq boʻlgan paradigmatic va sintagmatik munosabatlar omonimiya, polesemiya, anatomiya va boshqa hodisalarni soʻzlarning, leksik-semantik variantlarini tasnif qilish borasida kengroq ochiladi. Soʻzning mazmun komponentlari oʻrtasidagi bogʻlanish va soʻzlarning maʼnolari orasidagi munosabatlar ularning nutqda oʻrganilishini oʻrganish orqali aniqlanadi. Polisemiya soʻzlarning bir qancha maʼnolarini anglatadi. Soʻzning har xil maʼnolari kontekst yordamida oydinlashadi. Kelib chiqishi jihatidan polesemiya bir predmetni yoki xodisaning nomini boshqa predmet yoki xodisaga koʻchirish orqali paydo boʻladi. Masalan, qushning qanoti, samolyotning qanoti kabi. Koʻpincha polisimiyaga bir soʻz doirasida har xil maʼnolarning yigʻindisi sifatida qaraladi. Bunda asosiy toʻgʻri maʼno va qoʻshma maʼnolar aniqlanadi.

Feʼllar har qanday tilning leksik-semantik tizimida markaziy oʻrinni egallaydi, harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi. Tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini belgilovchi asosiy hodisalardan biri bu polisemiya (koʻp maʼnolilik) boʻlib, u bir soʻzning bir nechta, oʻzaro bogʻliq maʼnolarga ega boʻlishini anglatadi. Agglyutinatив tillar oilasiga mansub boʻlgan koreys va oʻzbek tillarida ham feʼllarning polisemiya hodisasi keng tarqalgan boʻlib, u tillarning ichki rivojlanish qonuniyatlari va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Polisemiya, asosan, maʼno koʻchishi (metafora, metonimiya, sinekdoxa) orqali yuzaga keladi. Feʼlning asl (bosh) maʼnosi kontekst, vaziyat yoki soʻz birikmasi taʼsiri ostida yangi, hosila maʼnolarni kasb etadi. Bu yangi maʼnolar odatda bosh maʼno bilan mantiqiy yoki assotsiativ bogʻliq boʻladi. Koreys va oʻzbek tillari oʻzining tipologik yaqinligi tufayli (ikkalasi ham agglyutinatив, SOV – ega-toʻldiruvchi-kesim tartibiga ega) feʼl polisemisining shakllanishida oʻxshash tendensiyalarni namoyon etadi. Soʻzning maʼnosi haqida gapirilganda shunga etibor qaratish lozimki, maʼno va tushuncha oʻrtasida muayyan farqli xususiyatlar mavjuddir. Bu haqdagi tasavvurni yanada oydinlashtirish uchun tilimizda mavjud boʻlgan tabu va evfimizmlarga ahamiyat berish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, tushuncha leksik maʼnodan farqli boʻlib, u faqat

soʻz orqali emas, balki soʻz birikmasida ifodalanishi ham mumkin. Leksik maʼnoning asosiy turlari atash, koʻrsatish va koʻchma maʼnodan iboratdir. Bu oʻrinda koʻchma maʼno metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik asosidagi maʼno koʻchishi sifatida tushunilmogʻi lozim. Koʻchma maʼnoning bunday koʻrinishi, albatta, frazeologik birliklardagi maʼno koʻchishidan farqlidir.

**Asosiy qism.** Koreys tilida ham soʻzlarning polisemiya hodisasiga uchrab koʻp manolarda qoʻllanilish holatlari koʻp. Koʻp maʼnoli feʼllar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Maqolamizda ushbu feʼllardan birini tadqiqot obyekti sifatida olib, maʼno koʻchish turlarini koʻrib chiqamiz. 가다 ning asosiy maʼnosi - ketmoq, bormoq feʼli bilan boshlangan feʼlning koʻp maʼnoligi umumiy boʻlgan asosiy maʼnosi bilan baʼzi koʻrsatilgan joylarda mos keladigan tizimga ega boʻlgan bir maʼnoli soʻzlarning aloqasi bilan bogʻlanishi orqali koʻp maʼnolilik tuzilmasi yuzaga keladi(정주리 1997). ‘가다’ ning koʻp maʼnolilik xususiyatini tushunish uchun barcha matnlarda umumiy ravishda mavjud boʻladigan ‘가다’ feʼlining asosiy maʼnosini tushunib, matnga qarab tanlaniladigan qahramon, joʻnaydigan tomon yoki yetib boradigan tomonga koʻra turlicha yuzaga keladigan matndagi maʼnosini turkumlab tahlil qilish kerak. Keying qismda ‘가다’ feʼlining tizimli maʼnosining 10 dan ortiq maʼnosi keltirilgan. Ushbu 10 dan ortiq maʼnoda odatda mavjud boʻladigan maʼnolarni asosiy maʼno sifatida koʻrishimiz mumkin. koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼno xususiyatlariga eʼtibor berib, “가다” feʼli misolida nutqning turli sharoitlarida, turli xil maʼnolar berishini kuzatamiz.

Polisemiya soʻzlarning bir qancha maʼnolarini anglatadi. Soʻzning har xil maʼnolari kontekst yordamida oydinlashadi. Kelib chiqishi jihatidan polesemiya bir predmetni yoki hodisaning nomini boshqa predmet yoki hodisaga koʻchirish orqali paydo boʻladi. Lekin bu narsa asosan ot soʻz turkumiga tegishlidir. Feʼllarning koʻp maʼnoliliga boshqa soʻzlarga bogʻlangan holda amalga oshadi. Dastlab “가다” feʼlini asosiy maʼnosiga eʼtibor berib, keyinchalik uning koʻp maʼnoli holatlarini oʻrganib chiqamiz. “가다” feʼlining asl maʼnosi oʻzbek tiliga “bormoq” feʼli bilan tarjima qilinadi. Bu feʼlning qoʻllanilish darajasi nihoyatda kengdir. “가다” feʼlining lugʻaviy maʼnolariga etibor berib qarasak ushbu noʻtoʻgʻri feʼl yigirmadan ortiq lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan koʻp maʼnoli soʻz ekanini bilib olamiz. “가다” feʼlining lugʻaviy maʼnolariga misollar keltirgan holda, uning qanday maʼnolarda kelishini koʻrib chiqamiz.

‘가다’

1) 이곳에서 다른 곳으로 움직이다 Bir joydan boshqa biron tomonga harakatlanmoq maʼnosida: \_부산에 언제 가니? Pusanga qachon ketasiz?

2) 종사하거나 배우거나 일보기 위해 있던 곳에서 어디로 옮기다 Biron bir xizmat yuzasidan yoki ta'lim olish shuningdek ma'lum bir narsalarni tekshirish maqsadida hozirda turgan joyidan boshqa joyga ko'chish.- 동사무소에 간다.

3) 소식, 연락 말 따위가 어디, 누구에게 알려지거나 전하여지다. Xabar , yangilik ma'nosidagi muhim gap va ma'lumotlarni boshqa biror odamga yetkazish yoki bildirish ma'nosida:- 연락이 가다. -Xabar yetkazildi, yoki xabar jo'natildi.

4) (대상을 기준으로) 어떤 정도에 이른다. (Obyekting miqdori ma'nosida) qancha darajada eplanadi, erishiladi, bajariladi: - 소년의 허리춤에 갈까 말까 했다. -Yigitning beli chidarmikan.

5)시계 따위의 기계가 움직이다. Soatning vaqt bildiruvchi ko'rsatgichlarining harakatiga nisbatan ishlatiladi va ishlamoq, yurmoq, ko'rsatmoq ma'nolarida keladi - 오래된 시계지만 잘 간다.-Eski soat bo'lsa ham vaqtni to'g'ri ko'rsatadi.

6) 물체가 기울어지거나 치우치다. Narsalarga nisbatan ishlatiladi va biror bir narsaning egilishi yoki og'ishi ma'nosini bildiradi: - 기둥이 왼쪽으로 좀 간 것 같다.

Ustun chap tomomonga biroz qiyshayganga (og'ganga) o'xshaydi.

7)보는 눈이 어디로 쏠리다. Insonlarning ko'z qarashiga nisbatan ko'zi qayergadir tikilgan:- 눈길이 가다- Nigohi qaratilgan.

8) 어떤 시간, 날, 달, 철 따위가 지나다. Biror bir vaqt, kun, oy, mavsum kabilarning o'tishi ma'nosini bildiradi. - 시간 가는 줄도 모르고.. Vaqtning o'tib ketganini ham bilmay qolibman.

9) (나중에) 어떤 때에나 지경에 이른다. (Nihoyat) qandaydir vaqtda holatning paydo bo'lishi. - 결국에 가서는 ....- Xulosaga keldi.

10)상태, 형편 따위가 계속 되거나 유지 된다. Bor bir narsaning holat va chidamliligini davomiyligini yoki bo'lmasan saqlash muddatini bildiradigan ma'no anglatadi. - 이 건물은 앞으로 50 년은 간다 Bu binoning chidamlilik muddati 50 yil , yoki bu binoning foydalanish muddati 50 yildir.

11) 마음이나 느낌이 어디로 쏠리다 Qalb yoki his tuyg'ularning qandaydir bir tomonga qaratilishi. - 관심이 간다. biror narsaga qiziqmoq.

12) 이해, 짐작, 판단 등이 되다. Qiziqishlar, taxmin qilish, talqin qilish kabilarning bo'lishi — 이해가 간다. Qiziqib qolmoq.

13) 금, 줄, 흙, 주름살 따위가 생기다. Yoriq , nuqson, yuzdagi ajin kabilarning paydo bo'lishi:- 금이 간 향아리 Darz ketgan ko'za.

14) 끼인 때 따위가 없어지다. Ovqat mahalining o'zgarishi yoki yo'q bo'lgan paytda ishlatiladigan ma'nosidir. - 빗물에 때가 잘 간다.Yomg'ir suvi ham o'z vaqtida yaxshi.

15) 본래의 맛, 성질 따위가 변하거나 없어지다. Umuman ishtaha yoki xarekterning o'zgargan yoki yo'qolgan paytda ishlatiladigan ma'nosi — 입맛이 가다: Ishtaham yo'q.

17) 사람이 죽다 Odam o'ldi ma'nosida - 저 세상으로 갔어: Narigi dunyoga ravona bo'ldi.

**Xulosa.** Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki “가다” fe'lining turli xil lug'aviy ma'nolari mavjud. Lekin har bir lug'atda berilayotgan ma'nolari ichida takror qo'llanilayotgan ma'nolar ham mavjud. Shuningdek ushbu lug'atlarda uning yangi xil ma'nolarini ham uchratish mumkin. Ushbu misollardagi 1, 2, 3... kabi berilgan misollar “가다” fe'lining qo'llaniladigan ma'nolaridir. Ammo bu misollar “가다” fe'lining barcha ma'nolarini qamrab ololmagan. Misollarda keltirilgan gaplardagi ma'nolarning ifodalanishi ma'lum bir noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ushbu ma'nolarni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar tuzish zarurati tug'ulmoqda. “가다” fe'lining ma'nolarini o'rganishda ushbu so'zning etimologiyasini yaxshi o'rgangan holda uning asl ma'nosiga qiyosan ma'nolarini farqlash zarur. Xulosa o'rnida aytish munkinki, faol til ishlatilayotgan paytda so'zlovchi, holat kabilarning tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli lug'atda keltirilgan ma'nolarga ega ko'p ma'nolik xususiyatini to'liq tushuntirish qiyin bo'ladigan muammo bor. Shuningdek “가다” deb ataladigan fe'lni ob'yekt sifatida ko'p ma'noli ma'nolarini tahlil qilishi tufayli fe'lning butun ma'no tahlilida ancha umumiy xususiyatlarini ko'rish mumkinligini ko'rsatilgan. Bu ko'p ma'noli so'z, fe'l haqidagi ma'no tahlili ekanligini bilishingiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.322-6
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2010, 234-b.
3. . Ким Мун Ук, А.Исмоилов ва бошқалар. Корейсча-ўзбекча луғат. ТошДШИ, -Т., 2006.
4. 이기문. 새국어사전. 서울. 2004.
5. 김석주, 이송녕 국어사전. 서울.: 동아출판사. 1986.
6. dic.naver.com
7. stdweb2.korean.go.kr

8. Shirin, K., & Ruzikulovna, N. M. (2023). Comparative teaching methods of "adjective degrees" in the Korean language classes with Uzbek language. *International Journal of Literature And Languages*, 3(03), 34-38.

9. Kamalova, S., & Nazarova, M. (2022). Koreys tilida ko'makchi fe'llar tasnifi va xususiyatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 284-291.